


Шаҳар ижтимоий-
снсий газетасиТОШКЕНТ
ОҚШОМИГазета 1966 йил 1 июлдан
чиқа бошлаган

№ 84 (9.122)





1998 йил

20 июль, душанба



Сотувда эркин нархда

Бир боғки миллий, муборак, мумтоз,
Бу ерда мезбондир Навоий устоз!

Рашид Галиев олган сурат.

Ўзбекистон Мустақиллигининг етти йиллиги олдидан

Она шахримиз Тошкент бағрини кезган кишининг хайратга тушмай иложи йўқ. Ноёб иншоотлар, саройлар, хиёбонлар, меҳмонхоналар, қорхоналар, кафтдек текис шохқўчалар, бири-биридан гўзал бинолар, кўкка сувлари сапчиб турган фаввораларни кўрганда ҳар қандай сўзга чечанинг ҳам тили дол бўлади.

Мустақиллигининг етти йили мобайнида республикаимиз ҳудудида, ҳусусан Тошкентда қад ростлаган меъморий қосоналар ҳар қанча мактовга арзигulik. Амир Темури бобомизнинг бир гуруҳга тўла сўзлари бор: «Қудратимизга шубҳа қилсангиз, биз қурдирган иморатларга боқинг». Биз ҳам бугун мустақиллик шарофатлари ҳақида сўз юритганда: «Жонажон Тошкент шахримизнинг бағридаги дилрабо иморатларга, токиравокларга боқинг» деймиш.

Бугундан бошлаб мустақиллик йилларида ҳур Ўзбекистонимиз пойтахти — Шарқда машҳур, мафтункор ва гўзал Тошкент шаҳрида барпо этилган мухташам иншоотлар — Истиқлол қосоналари ҳақидаги турқум хикояларни эълон қилишга киришдик.

ИСТИҚЛОЛ
ҚОШОНАЛАРИ

Биринчи ҳикоя

... 1991 йилнинг кузи, Ўзбекистон Миллий боғи худди байрамдагидек гажув. Ўриндиклар, оппоқ дастурхонларга қўйилган ноз-неъматлар меҳмонларга мунтазир.

— Мархаббо!
— Хуш келибсиз! — деган садолар ҳар лаҳза такрорланади. Барча-нинг нигоҳи боғ тўридаги ҳазрат Алишер Навоий ҳайкалига қадалган. 550 ёшга тўлган буюк мутафаккир шоир узок-яқиндан келган азиз юртодошларига «Марҳамат қилгайсиз!» деб қучоқ очаётгандек.

Миллий боғнинг ўша кунги шукуҳи, айниқса, ўзгача эди. Шоир хотирасига тортилган нахорги ош истиқлолнинг илк шукронаси каби эди. Президентимиз Ислам Каримовнинг таърифи эса бу файзга янада ўзгача сурур бахш этди. Йўлбошчимиз одамлар билан омонлашар, барчаннинг юзидан порлаб турган қувонч борган сари нурланар эди...

Уша етти йил олдинги тантана ҳали барчаннинг ёдида. Уша йилларда тугилган гўдак етти яшар бўлди. Демак, у истиқлол билан баравар улғаймоқда. Эҳтимол у суюкли ойи-жониси, дадажониси билан ҳар йилги байрамларда Миллий боғимизга таъриф буюрар, ҳар йилги буюк ўзгаришларни кўрар, жажжи қалби ҳали ўзи тушунмайдиган бир фараҳга тўлиб, Навоий бобомиз пойига гуллар қўяр. Ишонаманки, шу етти ёшли гўдак келажакда неваралари, эваралари билан ҳазрат Навоий пойига гуллар келтирар. Ва ҳикоясини шундай бошлайди:

— 1991 йилнинг 31 августида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримов Ватанимиз мустақиллигини эълон қилдилар. Худди шу йили истиқлолимиз фидойиларига бўлган Абдулла Қодирий, Фитрат, Чўлпонларга Алишер Навоий номидаги республика Давлат мукофотлари берилди. Худди шу йили ҳазрат Алишер Навоийнинг 550 йиллиги нишонланди. Истиқлоли-

мизнинг илк кунда тамал тошлари қўйилган, илк ниҳоли-экилган, илк гиёҳларининг уруғлари сепилган Миллий боғимизга ўлмас шоиримизнинг номи берилган. Мен, болаларим, шундай қутлуг кунларда дунёга келган эканман. Бу йил мана шу улғу шоиримиз 625 ёшга кирдилар.

— Вуй, бобожон, у киши қаерда яшайди? — сўрайди неваралардан бири.

— Ул зот мана шу маконда, гуллари, дарахтлари ниҳоятда кўп боғда яшайдилар, — дейди Отахон. — Қаранг, бир томонда сувлари мавжла-ниб турган улкан кўл, сўлим боғлар, бир томонда гуллари фавворалар, бир томонда барчамизни ахилликка чорлаб бағрига олувчи Халқлар Досту-лиги саройи, бир томонда Наврўз байрами томошагоҳи, тўрда эса шои-римиз Алишер Навоийнинг ҳайкаллари. Осмондаги юлдузларни санаш мумкин, лекин бу ердаги гуллари-ни санаб чиқиш мушкул. Агар шоир бўлганимда мана бундоқ таърифла-ган бўлар эдим: «Бир бор экан, бир йўқ экан, Шарқнинг гули Ўзбекистон-да, шаҳри Тошкенти жононда, худди шу бизнинг замонда ажойиб бир мас-кан бор экан. Уни кўрмаганлар кўр-сам, кўрганлар бағрида юрсам, дер экан. Болаларнинг қулгуси хандон, кексалари шодон экан. Буки анвойи чаманда сахар қумрилар хушхон, қуёш чароғон экан. Боғнинг жамо-лини кўрган, чиройини қалбига го-эт-ган киши беихтиёр ғазал ўқиб юбо-рар экан:

Бир ёнда мавжларан боғнинг қўллари,
Бир ёнда турфа ранг чечак, гуллари,
Бир ёнда кўк тўққан сарой муҳаббат,
Хар дарахт, хар чўла меҳр муҳаббат,
Ариқларга қўқидир сокин чархалар,
Бундайин гушани кўрганимиз фалок?!
Сайр этиб тўймайди боқиб кўзларинг,
Етмагай назм битсанг ширин сўзларинг,
Хар баҳорда ўйнар рангин камалар,
Осмондан боқадиги гўё ҳур, малар.

Бу гўша таърифи етти иқлимда,
Бу гўша ярали меннинг элимда,
Бир боғки миллий, муборак, мумтоз,
Бу ерда мезбондир Навоий устоз!

Болалар хайрат билан боболарига тикиладилар: «Шунча шеърни ёзиб-дилару тагин шоир бўлсам эди» дейдилар. Қойил-е!

— Бобожон, — дейди етти ёшли ўғлонлардан бири, — сиз тугилган йилда ҳам боғ шундай гўзалмиди? — Ҳа, гўзал эди! Йил ўтгани сайин инсон қўли билан яна ҳам гўзаллаш-ди. Ҳар йили бу ерда шундай ажой-иб бунёдкорлик ишлари қилинадики, асти қўяверасизлар. Мана, Олий Махлисининг биноси. Бундоқ иморат Шарқда йўқ десам ишонаверинлар. Унинг рўпарасидаги оромгоҳда бо-лаларнинг қий-чувлари бир зум бўл-син тинмайди. Хув, боғларни қара-нглари! Эҳ, қани энди сизлардек ет-ти ёшлигим яна қайтиб келсаю, елиб-югуриб ўйнасам.

Етмиш ёшли бобо жим қолади. Кўз ўнгидан ҳар йили бўладиган Наврўз томошалари ўтади. Етти ёшли нева-раларини Наврўз сайилгоҳидаги сах-налар томон бошлайди.

— Мана шу ерда азалий Наврўз шодионалари бўлади. Катта саҳнада анвойи либослардаги рақосалар, қизалоқларимиз, хуллас ёшу қари иштирокида катта томошалар бўла-ди. Карнай-сурнайларнинг садолари бир зум тинмайди. Наврўз шодиёна-лари миллий боғимиз кўрқига кўрк қўлади. Эҳ, ўша кунги қувонч, ўша кунги бахтиёрлики бир кўрсангиз эди! Шаҳримизда неча миллият бўлса ҳаммасининг ўзига хос ноз-неъма-ларийо санъати мана шу боғ бағрида намоиш этилади. Хунарманд ўз ху-нари билан, ошпаз оши билан, пол-вон тоши билан, мезбон нон-тўзи би-лан, шоирлар сўзи билан даврани хушнуд этади... Бахти бекам халқ-и-на ана шундай тантана қилади.

Қушлар қанотида елади Наврўз,
Хар баҳор солламинг келади, Наврўз,
Мисли тўлиб ойдек тўлади Наврўз,
Юртимни шодликка белади Наврўз.

Майсалар шиври — поклаши демак,
Елларнинг гузури — поклаши демак,
Юрқини гузури — поклаши демак,
Барчага омонлик тилайди Наврўз.

Бу мана шунақанги қутлуг мас-кан! Бу мағриб машриқдан юрти-мизга келадиган мўътабар меҳмонлар қадим ранжидида қилади-ган қутлуг маскан! Мустақиллиги-миз қуёсининг илк нури ила му-наввар бўлган гулшан бу. Қаранг-лар, болаларим, жигарбандларим, ҳазрат Навоий худди бундан етмиш йил аввал айтган сўзларини такрор этаётгандек:

Олам аҳли билинганки, иш эмас
душманлар,
Ер ўлинг бир-бирингизгаки зўр
бўлиб иш.

Миллий боғимиз — дўстлик мас-кани. Кўнгул маскани. Бу ерда Нав-рўз сумалағидан, халимдан татиган кишининг қалбига дўстлик туйғула-ри балқиб қиради. Азиз болаларим, сиз кўрган бу боғ, мана шундай буюк бир гўшадир...

... Мен эса ҳозирча етти ёш-ли ўғлонга қарата дегим кела-ди:

— Ўғлон, эрта ўтиб улғаясан. Мана шу қутлуг гушанинг муҳаб-бати, ҳазрат Навоий ўғити ила қамол топ! Унутмагилки, Миллий боғимиз — гуруримиздир. Сен ҳам шу боғни кўрганлар каби бағри очиб бўл, меҳри қуёш бўл!

Яна дейманки:
— Бу боғнинг кўркамлиги се-нинг ҳам қўлларингга мушток. Бу боққа эккан бир туп гулин, бир туп ниҳолнинг истиқлолимиз шаънига битган қасидан бўл-гусидир!

Ғолиб МИРЗО.

- 1 -

- 2 -

- 3 -

- 4 -

Қурилишда қанчалик тез иш бошланса, шунча тез иш тугайди деб бежиз айтишмас экан. Навбатда-ги тўққиз қаватли 2 ва 2-а» деб номланган уйлари-нинг тез қад кўтариши да-хала яшовчиларнинг эъти-борини ўзига тортди. Ҳи-даи бошқалар сингари биз-ни ҳам қизиқтирган, яқин кунларда фойдаланиш а-рафасида турган бу уй-ларни бориб кўришга жазм этидик.

Чилонзор даҳасининг 19-мавзесида бундан бир неча йил олдин ўзбек-Италия қўшма қорхонасининг «Ита-лю-Фуд» деб номланган супер-маркет дўкони фойдаланиш-га топширилган эди. Худди шу дўконнинг орқа қисмида анчагина майдон бўш қолган

бўлиб, навбатдаги уй қурили-ши шу ерга белгиланди. Қурилиш майдонига кел-ганимизда тикловчилар деярли ўз ишини тугаллашга ҳаракат қилишар, электрчи ва газ тик-ловчилари қизгин иш билан

иш қизгин палласида ё кра-ишдан чиқса, ёки қоршма, бетон плиталар вақтида етиб келмаса унда иш тамом. Ва-қтдан ҳам юзаксиз, қараб-сизки, унинг топчилигиш муддати орқага сурилиб ке-тиб, бетон қоршмаси ёки бо-шқа нарсаси бўлсин ҳамма-сини зимдан кузатади. Юко-ридагиларга нима кераклиги-ни ўзи англаб етиб, пастдаги ўша нарсаси қанча тўшугини ўнатилади. Шунинг учун ҳам биз барчамиз у кишини од-дийгина «профессор» деб ча-қирамиз.

— Айтингчи, бу уйлари-

СўНГГИ ИШЛАР БАЖАРИЛМОҚДА

тади. Шунинг учун ҳам биз бир-биримизни қўллаб-қув-ватлаган ҳолда иш юритиб ҳам таъминоти, ҳам рағбат-лантиришни сўсайтирмаган ҳолда иш олиб бораёلمиз. Бу ишда бизга малакали мута-хассис, қанчанча Александр Аноччи ақидан ёрдам бера-ди. Унинг салкам 40 йиллик иш фаолияти бугунги кунда

биз ёшларга катта мактаб ўчоғи десак янглишмаймиз. У қанчанчи бўлишига қарамай барча ишни тушуниб етати. Айниқса унинг юқори 8-9-қаватларига келганда қанча ил-инаётган ҳар бир плита, па-

нел, бетон қоршмаси ёки бо-шқа нарсаси бўлсин ҳамма-сини зимдан кузатади. Юко-ридагиларга нима кераклиги-ни ўзи англаб етиб, пастдаги ўша нарсаси қанча тўшугини ўнатилади. Шунинг учун ҳам биз барчамиз у кишини од-дийгина «профессор» деб ча-қирамиз.

— Айтингчи, бу уйлари-

ни буюртмачиси ва лойиҳа-чилари кимлар? — Биз қураётган уйнинг буюртмачиси давлат акционер-лик «Ўзўйжойкамгармабанк»и бўлиб, унинг лойиҳачилари Тошкент лойиҳалаш институ-ти

ташкил этилган. Қурилиш ма-териаллари пешма-пеш етказиб беришмоқда. Ишчиларнинг ой-лик маошлари вақтида берилиб, рағбатлантирилиб турибди. Байрам арафасида хондон ағалари кўш шодиёнага эга бўл-син деб, ҳаммамиз бор имко-ниятдан фойдаланаямиз. Айни долзарб кунларда бригадир Дмитрий Кукун, тикловчилар Фанил Галлиулин, Дамир Омо-нов, Александр Киенколар жу-да жадаллик билан ишлашди. Умуман олганда ҳаммаимизда 22 нафар қурувчи бор маҳорат-ларини ишга солди. Мана энди пардоз ишлари тугалланса биз қалипларни ўз ағаларига топ-ширамиз ва яна бир йил муд-дати билан мана шу уйни назо-рат остига оламиз.

Гўлзода МАМБЕТОВА.

БУГУНГИ КУН
НАФАСИ

МАМЛАКАТИМИЗДА

• Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкама-си «Қишлоқ ҳўжалигини ислоҳ қилишга оид қонуң ҳўжатларига мувофиқ қишлоқ ҳўжалиги коопера-тивлари (ширкат ҳўжаликлари) тузиш чора-тадбир-лари тўғрисида» ва «Фермер ҳўжалиги тўғрисида», «Дехқон ҳўжалиги тўғрисида»ги Ўзбекистон Респу-бликаси қонунларини амалга ошириш муддатлари ва чора-тадбирлари тўғрисида» қарорлар қабул қил-ди.

• Тошкент вилояти ғаллакорлари маррага етди-лар. Улар уйган хирмон 230 минг тоннадан орти-ди. Вилоят ғаллакорлари давлатга яна 10 минг тонна дон топишишга қарор қилдилар.

• Президентимиз Ислам Каримов Шохимардон қишлоғида бўлган чоғида тошқин оқибатида жабр кўрганлар оиласини моддий ва маънавий жиҳат-дан қўллаб-қувватлаш, қурбон бўлган юртодош-ларимизни эслаш, уларнинг руҳини шод этиш зару-рлигини алоҳида таъкидлаган эди. 17 июль куни Шо-химардонда табиий офат қурбонлари хотирасига Қурбон тиловат қилинди.

• Шохимардонда сув тошқини оқибатларини бар-тароф этиш бўйича тиклаш ишлари давом этмоқ-да. Бу ерга республикаимизнинг барча вилоятлари-дан инсонларварлик ёрдамлари пешма-пеш келиб турибди. Тошкент вилоятидан турли-туман бино-корлик ашёлари, озиқ-овқат маҳсулотлари, дори-дармонлар, кийим-кечақлар, кўрпа-тўшаклар ортил-ган 90 та автомашинадан иборат биринчи авто-жамланма бу ерга келди.

• Озарбайжон Касаба уюшмалари конфедера-цияси делегацияси аъзолари Ўзбекистон Касаба уюшмалари федерациясига ташриф буюрди. Учра-шув нихосида икки мамлакат касаба ташкилотла-ри ўртасидаги ҳамкорлик тўғрисидаги битим им-золанди.

• «Ўзбекистон ҳаво йўллари» миллий авиаком-панияси Тошкент—Новосибирск ўртасидаги мунта-зам қатновни йўлга қўйди. Ҳозирги пайтда Варна, Симферополь, Екатеринбург шаҳарлари билан ҳа-во алоқасини йўлга қўйиш борасида ташкилий иш-лар олиб боришмоқда.

• Жиззахда ногиронларни даволайдиган янги марказ очилди.

ЖАҲОНДА

• Шанбадан бошлаб Россия Президенти Борис Ельцин таътилга чиқди. У таътилни Карелияда ўт-казди.

• Чеченистон Президенти Аслан Масхадов рес-публикадаги фавқулодда ҳолатни яна ўн кунга узайтиришга қарор қилди.

• Филиппин пойтахти Манила шаҳрида Осиё Ри-вожланиш банки президенти жаноб Сато Ўзбекис-тон банклари ассоциацияси таркибига кирувчи ти-жорат банклари тараққиёти учун моддий ёрдам кўр-сатиш мақсадида 1 миллион АҚШ доллари миқдо-рида маблағ-грант ажратиш ҳақидаги расмий ҳўж-жатни имзолади.

• Қозоғистонда шимолий вилоят — Павлодарни энг яқин йўл орқали шарқий вилоятлар билан бир-лаштириш учун 185 километрдан иборат темир йўл қурилиши бошланди.

• Ўтган шанба куни Жанубий Африка Респу-бликаси Президенти Нельсон Мандела 80 ёшга тўлди. Кеча бўлиб ўтган юбилей тантаналарида икки ми-нгдан зиёд фахрий меҳмонлар таъриф буюришди. Шанба куни Йоханнесбургда 80 ёшли Манделани-нг Мозамбик Президенти Самюел Машелнинг бе-васи — 52 ёшли Грация Машел билан никоҳдан ўтиш маросими ҳам ўтказилди.

• Жазиорада ислом экстремистлари қўлида қиш-лоқлардан бирининг 13 нафар аҳолиси ҳалок бўл-ди.

• Эквадорда ўтказилган президентлик сайлов-лари натижаларига кўра христиан демократ Хамил Муад мамлакат президенти этиб сайланди.

• Лектин шаҳар прокуратураси пойтахтининг со-бик мэри Чэн Ситунни катта миқдорда пора олган-ликда ва хизмат вазифасини суиистеъмол қилган-ликда айблади. Айбномага кўра, ноқонуний йўллар билан икки миллиард АҚШ доллари миқдоридида пулни ўзлаштирган 67 ёшли Чэн Ситун олий жазо-га ҳукм қилиниши ҳам мумкин.

• Иссиқкўл атрофидаги кўмир шахтасида мотам маросими бўляпти. Жергалин шахтасида юз бер-ган ёнгин натижасида беш нафар шахтёр ҳалок бўлган. Ҳалокат натижасида қуйган ва ярадор бўл-ганлар бор. Ҳозирча ёнгин сабаблари аниқлангани йўқ.

• Европада Хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкило-тига қарашли бўлган автомобилнинг йок автома-шинаси билан тўқнашиб кетиши оқибатида Евро-пада Хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилотининг Хор-ватиядаги раҳбари, швейцариялик дипломат Тим Гульдманн умуртқасидан жароҳат олди.

• Парижда модлар ҳафталиги очилди. Унда энг машхур ва йирик модельерларнинг қузғи-қушқи мавсумга мўлжалланган либослари кенг намоиш этилади.

• Кеча АҚШда Яхши ният уйинларининг танта-нали очилиш маросими бўлди.

ШАҲАР ТЕЛЕФОН ТАРМОҒИ
АБОНЕНТЛАРИ ДИҚҚАТИГА!

Кабель иншоотларини таъмирлаш бўйича режадаги ишлар амалга оширилиши муносабати билан

1998 йилнинг 21 июлидан 28 июлигача
Қўйлик даҳасининг 5-мавзесидаги 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 9, 10, 11-уйларда, Қўйлик даҳасининг 6-ма-взесидаги 4, 5, 6-уйларда истиқомат қилувчи 90/92-АТС абонентларида вақтинчалик алоқа бўл-майди.

Очик турдаги «Toshkent shahar telefon tarmog'i» хиссадорлик жамияти.

Тошкент шаҳар ҳокимлигининг Оила, оналик ва болаликни ижтимоий муҳофаза қилиш Котибиятининг йиғилиши бўлиб ўтди.

Йиғилиш иштирокчилари 1998 йил биринчи ярим йилликда шаҳар хотин-қизлар кўмитаси томонидан амалга оширилган ишлар ҳақидаги ахборотни тинглаб, муҳокама қилдилар.

Ислохотларда туб бурилишлар юз бераётган бир даврда Оила, оналик ва болаликни ижтимоий муҳофаза қилиш Котибияти ва хотин-қизлар кўмитаси томонидан шаҳримизда яшайдиган хотин-қизларнинг давлат ва ижтимоий қурилушда иштирок этишини фойдалантириш мақсадида бир қатор ишлар амалга оширилди. Ҳисобот даврида тасдиқланган режага асосан 2 та раёсат йиғилиши, 1 та пленум ўтказилиб, 1997 йил якунлари ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1997 йил 9 декабрдаги Ф-796-сонли Фармойишидан келиб чиқадиган вазифалар белгиланди.

Оила дастури бажарилишини таъминлаш бўйича Котибият томонидан шаҳар хотин-қизлар кўмитаси, «Маънавият ва маърифат» маркази, оқсоқоллар кенгаши, бошқармалар, турли жамоат ташкилотлари ва жамғармалар билан ҳамкорликда туманларда бир қатор амалий тадбирлар ўтказилмоқда. Ушбу тадбирларда аёллар ва ёшларнинг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш, маънавият, таълим-тарбия, соғлом эътиқодни шакллантириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган. «Аёл ва ҳуқуқ» мавзусида ўтказилган илмий-амалий семинарларда хотин-қизларнинг юксак ҳуқуқий маданиятга эга бўлишлари учун қонунчилик, ҳуқуқий тарбия масала-

ларига алоҳида эътибор берилди. Шунингдек, «Аёл ва жамият» институти билан ҳамкорликда барча туманларда «Аёл, никоҳ, оила: оилалардаги ҳуқуқий муносабатлар» мавзусида семинарлар ўтказиш режалаштирилган.

Семинар дастурида Халқаро Конвенциялар ва Ўзбекистон Республикасининг Қонунларида аёллар ҳуқуқлари ҳақида «Оила Кодекси», «Аёлларнинг таълим олиш, маданий ривожланиш ва меҳнат ҳуқуқлари», «Аёллар ва ислом дини» каби мавзуларга

вобгарликка тортилди. 193 нафар ота-она ҳокимликлар қўшиқдаги вояга етмаганлар билан шуғулланувчи комиссияларда муҳокама қилинди. 520 нафар ота-она эса расмий оғохлантирилди. Фарзанд тарбияси билан умуман шуғулланмай ва ўз хатти-ҳаракатлари билан уларга салбий таъсир кўрсатаётган 215 нафар оила соҳиб ёки соҳибаси вояга етмаганлар билан ишлаш инспекцияси ҳисобига олиниб, 19 нафар ота-она суд томонидан ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум этилди.

Сарҳисоб

БАХТИМИЗ ПОСБОНИ

алоҳида эътибор қаратилган. Маҳаллаларда ва меҳнат жамоаларида «Оила кодекси» ва «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги Қонунлар кенг тарғиб қилиниб, улар юзасидан тушунтириш ишлари олиб борилаётган.

Котибият ўз фаолиятида оилалар манфаатларини ҳимоя қилишга, уларнинг тинчлиги ва оқсоқоллигини таъминлашга, шунингдек, оила, турмуш даражасида содир этиладиган ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, фарзанд тарбияси билан шуғулланмай, ўз хатти-ҳаракатлари билан уларга салбий таъсир кўрсатаётган ота-оналарни аниқлаб, чора кўришга ҳамда уларнинг ахлоқий бузуқлиги ва маънавий қолоқлиги туфайли оила шайнига путур етказётганларга алоҳида эътибор қаратиб, бир қатор ишларни амалга оширди.

Жумладан, Тошкент шаҳар Ички ишлар бош бошқармаси билан ҳамкорликда ўтказилган тадбирлар натижасида 1154 нафар фарзанд тарбияси билан шуғулланмайдиган ота-оналар аниқланиб, маъмурий жа-

Оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш Котибияти ва хотин-қизлар кўмитаси оилаларга ҳуқуқий ёрдам бериш, уларни мустаҳкамлаш, қизларимизни вояга етмасдан турмушга чиқишлари, қариндош-уруғлар уртасидаги никоҳнинг салбий оқибатлари, қиз болалар ва ўсмирлар соғлигини муҳофаза қилиш, ёшларни оилавий турмушга тайёрлаш мақсадида бир қатор дастурлар ишлаб чиққан. Ушбу дастурлар бўйича ҳар бир туманда хотин-қизлар кўмиталари, ФХД, Ички ишлар бошқармаси, Халқ таълими бўлимлари билан ҳамкорликда давра суҳбатлари, савол-жавоб кечалари ўтказилмоқда. Ушбу ишлар натижасида Тошкент шаҳри бўйича вояга етмасдан турмуш қурганлар сони ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 38 тага камайган, ажралишлар сони эса 422 тага камайган.

Оила йили муносабати билан Тошкент шаҳар ҳокимиятининг қарорига асосан оила мустаҳкамлигини ва манфаатларини намойиш этиш, уларни эъзозлаш мақсадида барча туманларда «Бахтли оила» қўрик-тан-

ловлари ўтказилиб, ғолиблар шаҳар кўригига тасвир этилди.

Тадбиркор аёлларнинг ишларини янада ривожлантириш мақсадида «Бизнес — режалаштириш, молиялаштириш, менежмент, ишлаб чиқариш» бирлашмаларида ўқув ишлари ўтказилди.

Тошкент шаҳрида фаолият кўрсатаётган элчионалар, дипломатия ваколатхоналари аёлларини миллийлик турмуш тарзи, урф-одатлари, миллий қадриятларимиз ва аъёнларимиз билан таништириш давом этмоқда.

Шаҳримизда ўтаётган маданий-маърифий тадбирлар ўзбек ва чет эллик аёллар дўстлигини мустаҳкамлаш билан бирга катта ахборот ва маълумот манбаи бўлиб ҳам хизмат қилади.

Шаҳар хотин-қизлар кўмитаси хорижий дўгонлари билан ўзвий оилавий алоқалар бослаган. Бундай муносабатлар Покистон, Япония, Америка, Германия, Хиндистон каби давлатлар билан айниқса ривожланган.

Хотин-қизлар кўмиталарининг барча хайрия тадбирлари «Соғлом авлод учун», «Қизил Ярим Ой» жамияти, «Болалар», «Наврў», «Меҳр-шафқат ва саломатлик» жамғармалари билан ҳамкорликда ўтказилмоқда. Жорий йилнинг биринчи ярмида «Наврў» жамғармаси 658296 сўм, «Меҳр-шафқат ва саломатлик» жамғармаси томонидан 757500 сўмлик хайрия ёрдами кўрсатилди.

Умуман олганда Оила йилида оилаларни янада мустаҳкамлаш, уларнинг ҳуқуқий, маънавий, маданий саводхонлигини ошириш, соғлом эътиқодни такомиллаштириш, ажримлар ва жиноятчиликни қамайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Йиғилишда Тошкент шаҳар ҳокими ўринбосари, шаҳар хотин-қизлар кўмитасининг раиси Фарида Абдурахимова иштирок этди.

Маъмура РЎЗИЕВА.



Хайратга йўрилган нигоҳ.

Аёл деганда биз аввало гўзал, нозик дидли, оқила, юмшоқ табиатли инсонни кўз олдимизга келтирамиз. Аммо бу ҳол уларнинг жамият ҳаётида иштирок этишларига монелик қилмайди. Зотан, қадим тарихимизда ҳам аёллар жамият ишларига фаол аралашганлари, кўпчиликка бош бўлганлари айтилган. Зеро юртга, халққа бўлган муҳаббат ҳисси улар қониди доимо юш ўрган. Бугунги кунда ҳам бундай аёллар ораимизда кўп. Чилонзор тумани ҳокими ўринбосари Мунира Обидова билан суҳбатлашганимизда ана шу фикрлар ҳаёлимдан кечди.

— Мунира опа, ёшлигингизда раҳбар бўлман деб ҳеч ўйланганми?

— Менга бу саволини авваллари ҳам беришган. Умуман, барча раҳбарлик лавозимидagi аёллар ҳақида мансабга интилиш ҳисси бор, деб ўйлашди шеклили одамлар. Аслида мен оддий инсонлар қатори мактабни тугатиб Тошкент политехника институтига (ҳозирги Тошкент Давлат техника университети) ўқишга кирдим. Ташкили тугатган, чини заводда оддий муҳандис бўлиб меҳнат қила бошладим. Вақт ўтди катта муҳандис лавозимини ишончи топиширди. Завод Собир Раҳимов туманида жойлаш-

Диплашув

«АВВАЛО БИЗ ОНАМИЗ»

ганини биласиз. Шунга кўра туман ижроия кўмитасида ишлаш бошладим. Кейинчалик Чилонзор ҳокимлигига тақлиф қилинди. Бу ерда турли бўлимларда ишлаган одамлар билан муомала қилишни, уларнинг муаммоларини тушунишни ўргатди. Айтмоқчиманки, менда мансабга интилиш деган ҳиссий бўлмаган, балки поғона-поғона кўтарилиб боришимда мени ҳаётнинг ўзи тарбиялаган.

— Сизнингча, раҳбар лавозимли аёл оилада ҳам устун бўлиши мумкинми?

— Эрак киши оилада ҳам, кўча-кўйда ҳам доим бир поғона устун бўлиши керак. Аёллар раҳбар бўлгани билан у аёл, у она. Шундай экан, аёл киши ҳар доим ҳам ўз аёллик латифатини, ўз гўзаллигини сақлаб қолиши лозим. Ахир уни бекорга муқаддас аёл дейишмайди-ку. Аёл номи муқаддаслигига сакланиб қолмоғи даркор. Бундай бўлиб қолиши эса аёлларнинг ҳақ даражада оқила ҳамда билимдонлигига боглиқ. Бордию, агарда аёл киши оилада ҳам устунликка эришишга ҳаракат қилар экан, у ҳолда оилада парокхандлик юз бериши ҳеч гап эмас. Эрак киши бўлатирди аёл етакчи ўринни эгалласа рўзгор худди пойдеворсиз иморатга ўшаб қолади. Пойдеворсиз қурилган иморатнинг охири нима билан тугаши эса барчага маълум.

— Шу вазифада ишлашингизга оила аъзоларингизнинг муносабати.

— Аввало оилада ҳамжиҳатлик, бир-бирини қўллаб-қувватлаш бўлмас экан, ҳеч кимнинг иши ҳеч қачон олга сийлмайди. Ақалларим ҳам ўқиб-ўрганган, тушунган одамлар. Улар ҳар доим менга йўриқ кўрсатиб қилишган. Аёл кишининг раҳбар бўлишида оилавий муҳит, оила аъзоларининг бир-бирига бўлган ишончи ҳам асосий ўринда туради.

— Бугунги кунда аёл, она, раҳбар қандай бўлиши керак, деб ўйлашсан?

— Бугунги кун аёли юқорида айтиб ўтганимдек у ўзининг ташқи ва ички маънавий гўзаллигини она сифатида ўз фарзандларига ҳам сингдирган олсин. Ҳар бир она ўз сегвисини, гўзаллигининг аксини болаларининг билимдонлигига, уларнинг ахлоқ-одобида акс эттирсин. Корхонада, иш жойида раҳбар бўлса, уйда турмуш ўртоғи ҳамда болалари даврасида ҳақиқий аёл, она бўла олсин. Токи унинг оиласидagi агарда деганнинг турмуш ўртоғи, онам бошқа аёллар сингари оддий ҳодим, уй бекаси бўлганида эди, уйда бутунлай бошқага вазият юзага келарди, деган ўй-хаёлга келмасин. Мен ўзим ҳам ишдан бўш пайтларимда турли ширинликларни бажонидили севиб тайёрлайман. Газ плитасида бўлса ҳам ўзимизнинг ўзбек-кона уй нонини пиширгим келади. Бугунги оила кўркамлиги, унинг шодликлари кўпроқ аёл кишига боглиқ экан, у иложи борича ўзини оилага, фарзандларига бахшида этмоғи лозим.

Суҳбатдош

Наргиза ПИРНАЗАРОВА.

Бека

МАСПАҲАТЛАР

Игна, тўғончи, кийим-кўйидиған сиймалар сақланадиган кутига озгина ун селиб қўйсангиз улар занглаб қолмайди. Шунга қарамай занг тортган бўлса, совунга санчиб қўйсангиз асл ҳолига қайтади.

Мўйна ва торларнинг ички томони дағаллашганда, юмшатишининг яна бир йўли бор: 1 литр илқ сув-га хом тухум сариги, 2 чой

Агар қойшаблар ёқимли ифтор таратсангиз, уларни тахлаётганда орасига бироз атир шимдирилган босма ҳаққозни қўйинг.

Агар қулдонни ювишда қийинсангиз, уни туз билан артиб, кейин сув билан чайқанг.

Бу йил Бирлашган Миллатлар Ташкилотига аъзо бўлган давлатлар томонидан «Инсон ҳуқуқлари Декларацияси» қабул қилинганига 50 йил тўлди. Ушбу Декларация Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Низоми таъинишларини ўзида муҳассамлаштирган, инсон ҳуқуқларини ҳурмат қилиш барча ҳуқумат ва халқларнинг умумий вазифаси эканлигини кўрсатувчи, жамият ва ҳукуматларнинг позициясини ўлчайдиган мезон сифатида муҳим аҳамиятга эга бўлган ҳужжат сифатида баҳоланмоқда.

Ўзбекистон Марказий Осиё давлатлари орасида биринчилардан бўлиб «Хотин-қизлар Умумжаҳон ҳуқуқлари» деб номланаётган Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг «Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шаклларида барҳам бериш тўғрисидаги Конвенцияси»га қўшилди.

«Мамлакатнинг тўлиқ ривожланиши, бутун дунёда фаровонлик ва тинчлик иши барча соҳаларда аёлларнинг эркаклар билан баробар муносиб қадар кўпроқ иштирок этишларини талаб қилади».

30 та моддадан иборат мазкур Конвенцияда барча хотин-қизларнинг тенг ҳуқуқларини таъминлашга йўналтирилган халқаро ҳуқуқий шаклдаги таъминилари ва чоралари аниқлаб берилган.

Унинг қабул қилиниши беш йилдан ортқ вақт мобайнида давом этган ҳар хил ишчи гуруҳлари, хотин-қизлар аҳволини ўрганувчи компаниялар фаолиятини, шунингдек, Бош Ассамблеянинг мадҳахотлари натижаси бўлди.

Сана

МУҲИМ АҲАМИЯТДАГИ ҲУЖЖАТ

Кенг қамровли Конвенция хотин-қизларга нисбатан фақат жинсий белгиси асосида қўлланувчи истисно ва чеклашларнинг ҳар хил кўринишларини жамлаб, аёлларнинг оилавий ҳолатидан қатъий назар, барча соҳаларда:

— сиёсатда, иқтисодда, ижтимоий ҳаётда, маданиятда, фўқароликда хотин-қизларнинг тенг ҳуқуқларини таъминлашга қарайди. У давлатларни хотин-қизлар камситилишига қарши миллий қонунчилик чораларини ҳамда эркаклар ва аёллар ўртасида амалдаги тенгликни тезлик билан ўрнатилишга қаратилган вақтинчалик махсус чоралар қабул қилишга қарайди, шунингдек аёлларнинг ҳуқуқлари камситилишига қарши ижтимоий ва маданий моделларни ўзгартириш чораларини қўришни тасвир қилади.

Бошқа чоралар хотин-қизларнинг сиёсий ва ижтимоий ҳаётда, таълим олишда ва бир хилдаги ўқув дастурларига эга бўлишда тенгликни таъминлашга, меҳнат ҳақи ва иш билан бандликда аёлларнинг ҳуқуқларини камситишчи ҳолларни тугатиш ҳамда хотин-қизларнинг турмушга чиққанида ва она бўлган пайтда иш билан таъминлаш қарорларини назарда тутди.

Конвенция оилавий ҳаёт масалаларида эрак ва аёллар учун бир хил ҳуқуқ ва бурчларни ўрнатади. У шунингдек, керакли ижтимоий хизмат кўрсатишни таъминлашга, жумладан, ота-оналар оилавий вазифаларини меҳнат фаолияти билан бирга қўшиб олиб бориш ва ижтимоий ҳаётда қатнашиш учун шароит яратувчи болаларни парварош қилувчи ташкилотларнинг тармоқларини тузишга даъват этади.

Конвенциянинг бошқа моддалари соғлиқни сақлаш соҳасида хотин-қизлар камситилишига барҳам беришга даъват этилган. Шу жумладан, оиланинг катта-кичиклигини режалаштиришда эрак ва аёлларга тенг фўқаролик ҳуқуқларини бериш масалалари ҳақида ифодаланган. Бунга кўра, давлатлар хотин-қизларнинг ҳаёлидан қийиндиган барча шартнома ва бошқа ҳусусий ҳужжатларни ҳақиқий эмас деб ҳисоблашга қилишмоқдалар.

Унда кишлоқ жойларда яшовчи аёллар дуч келаётган муаммоларга алоҳида эътибор берилган.

«Инсон ҳуқуқлари Декларацияси»нинг 50 йиллиги муносабати билан Ўзбекистонда «Хотин-қизларнинг ҳар қандай камситилишига барҳам бериш Конвенцияси»нинг чоп этилиши алоҳида диққатга сазовордир. Ўзбекистонликларнинг кенг қатламига ушбу Конвенциянинг етказилиши жамият таракқиётини ва демократиялашнинг тезлаштиришга ёрдам беради, аёл шахси қадр-қимматини ҳурмат қилишдек олийжаноб мақсадга хизмат қилади.

Моҳира ҚАРИМОВА.

Зеболик

СОЧ ПАРВАРИШИ

Шифобахш ўт ва гиёҳлардан ҳам сочни парвартиришда фойдаланиш мумкин. Қайин бағри, қумлоқ сўтаси, мойченак, игир, жамбил, қичитки ўти ана шундай шифобахш гиёҳлардандир. Бу шифобахш ўтлар қайнатмаси билан сочингизни чайсангиз майинлаштирилади, жилолаштирилади ва соч тўқимасини мустаҳкамлайди. Қайнатма оддий тайёрланади: бир ош қошиқ қуриланган гиёҳ бир стакан сувда дамба қўйилди. Бир неча соатдан сўнг сузиб олиб, сўнг тинитиб ишлатилади. Ёғли сочлар учун алоҳида парварош зарур. Хушбўй, қамаштирувчи ўт-

лар (эман пўстлогли, маврак, жамбил) бош терисига ёғ йўллари орқали сингиб, орқига ёғларни ўзига шимиб олади. Бу гиёҳлар қайнатмаси юқоридаги усулда тайёрланади.

Агар сочингиз ялтираб турмушини истасангиз, унинг илдизига бир пёёла майонез суринг. 20 дақиқадан сўнг бошингизни одатдагидек шампунлаб ювасиз. Сочингиз ўзингиз истагандек жилоланади.

Хўш сочни қўёш тигида қуритишга одатланманг: айнакча улар жингалак ва бўлган бўлса сочлар мўртланиб, тез қўйла бошлайди.

ТОШКЕНТ АЁЛЛАРИ

Тошкент шаҳар хотин-қизлар кўмитасининг саҳифаси

«Халқ — аёлдан, мамлакат эса оиладан бошланади», — дейди доно халқимиз. Дарҳақиқат аёл зукко бўлса, ақл-фаросат билан иш юритса ишида унум, оиласида оқсоқоллик ҳукмрон бўлади.

Аёл нозиклигини гулга, метин иродасини чинорга қийс-лайдилар. Бадий асарларда, назмда аёл ҳусну латофати, назокати гўзал ташбеҳлар ёрдамида акс эттирилса, Ширин, Лайли, Дилором, Тўмарис образлари орқали аёл садокати, мардлиги ифода этилган.

Ҳозирчи... Бошқаларга ўрнал қилиб кўрсатишимиз мумкин бўлган маърифатли аёлларимиз йўқми? Бор, албатта. Лекин, улар ниҳоятда камтарин бўлганликлари учун эзгу амалларини ҳар ерда «достон» этиб юрмайдилар. Шундай аёллардан бири ҳақида ҳикоя қилишга ҳазм этиб, қўлимга қалам олар эканман «Унинг бутун фаолиятини қамраб олармиканман» деган ҳадик менга тинчлик бермади.

Тўғриси айтганда сеvimли бека, халқ оғзаки ижодиётининг билимдон ва зукко тадқиқотчиси, фольклоршуно оlima, Абдулла Қодирий номили Тошкент Давлат маданият институтини хотин-қизлар кўмитаси раиси, Республика хотин-қизлар кўмитаси «Ишдоркор аёллар» уюшмаси раисининг ўринбосари, «Маҳалла» хайрия жамғармаси қосида ташкил этилган «Умуминсоний қадриятлар ва оила» бўлимининг жамоатчилик асосидagi раиси, институтдаги маънавият ва маърифат бўлимининг бошлиғи сифатида иш юритаётган бу фаол аёлнинг қайси жабҳадаги фаолиятига кенгрок тўхталишни билимадим. Бирок улар билан суҳбатлашш жароғида билганларимни сизларга маълум этиб, ўзи шундай ҳам машҳур бўлган аёлни бошқаларга ибрат қилиб кўрсатгим келди.

Саодат Йўлдошева... Сиз бу аёлни Ўзбекистон телевидениеси орқали «Анъана ва замон», «Жавоҳир дурдоналари», «Уй оstonида бошланади», «Ассалом, Ўзбекистон» кўрсатувларининг сценарий муаллифи, бошловчисини сифатида экран орқали кўп бор кўргансиз.

Саодат она Тошкент Давлат университетининг филология факультетини 1974 йилда тугаллаб, Тошкент Давлат Маданият институтига ишга келгандан бери талабалар ўртасида қанча маърифий ишларни олиб бормадилар дейсиз. Биз уларни учратиш мақсадида институтга борганимизда она талабалар уйида

ҚАДРИЯТЛАРИМИЗ ДАВОМЧИСИ

Ҳозирги истиқлол даври маданиятини юксалтириш учун халқ ташаббуси билан республикамиз ва унинг вилоятларида вужудга келган фольклор-этнографик жамоаларининг яшаб қолиши, халқимиз қалб тўридан жой олишида фольклоршуно оlima Саодат Йўлдошеванинг ҳиссалари катта. Улар муайян маълумотга эга санъаткорларни бир жойга тўплаб, ижодий мундарижалари билан танитиш учун кишлоқларга борадилар. Саодат опа ташаббуси билан иш бошлаган Бухородаги «Моҳи ситора», Қашқадарёдаги «Моҳи гул», Бўстонлиқдаги «Гулёр», Янги-бозордаги «Муножот», Қўқондаги «Омонёр», Хоразмдаги «Оразибон» ва бошқа бир қатор фольклор-этнографик, болалар фольклор ҳамда ашула ва рақс жамоалари санъат мухлислари эътиборини қозонмоқда. Донулар «Ватан — оила оstonасида бошланади», дейдилар. Оиладаги меҳрли муносабат барча эзгу ишларнинг муваффақиятли яқунлашишига омил бўлади. Саодат она оилада тадбиркор, фидойи, энг муҳими бир ўғил бир қизни қомил инсон қилиб тарбиялаётган меҳрибон она. Умр йўлдоши шарқшуно олим. Унинг яқин маслаҳатгўйи, ҳаёт йўлларида таъничи ва илҳомчиси.

Саодат Йўлдошева маданият ва истироҳат боғларида, пойтахт маҳаллаларида ўтказилиб борилаётган

«Барҳаёт анъаналар» номли оммавий сайилларнинг ташкилотчиси ва ташаббускори. У Ўзбекистон Республикаси маданият ишлари вазирлиғи томонидан ташкил этилган фольклор-этнографик жамоалари ўртасида ўтказилган «Аския», «Ёр-ёр», «Алла» каби бир қатор кўрик беллашувларнинг ташкилотчиси.

— Йигирма йилдан ошқ вақтдан бери талабаларга дарс бериб келаётган бўлсам, ҳали бирор дарсимни очқ қолдирган ёки бирова берган эмасман. Чунки ҳар бир дарсдан талабалар нимадир олишни хоҳлайман. Шогирдларим республикамизнинг турли вилоят ва туманларида миллий маданиятимизни, умуминсоний қадриятларимизни ривожлантириш бора-сида меҳнат қилаётганларидан фохрланаман, дейди биз билан суҳбатда опа. Меҳнатлари самарасини қурганд ким ҳам қувномайди дейсиз! Саодат опада халқ ижодиётини чуқур ўрганиш жараёнида уларда илмий тадқиқот ва илмий-услубий ишлар олиб бориш фикри туғилди. Шунинг натижасида бир қатор илмий-оммабоп рисоалар чоп этилиб, булар «Мангу безавол ҳазина», «Фольклор-этнографик жамоалари ижро маҳорати ва репертуари», «Мучал тўйи», «Нозанин», «Бугдй бошогига қасида», «Оналар ва болалар куйласин», «Омон ёр», «Бойсунинг парвози» қабилирдан кенг омма фойдаланмоқда. Бу илмий ишларнинг барчаси халқ донишмандлиги миллий-маънавий қадриятларини улугулинишга бағишланган. Бу рисоалардан маданий-маърифий ишлар соҳаси бўйича таълим олаётган талабалар ҳам ўқиш жараёнида фойдаланмоқдалар.

Саодат она шу кунларда «Алломиш» достони тўйи олдидан туркум мақолалар тайёрламоқда. Бундан ташқари аёлининг жамиятдаги ўрни, қизлар тарбияси, маънавий маданиятимизни ривожлантириш учун қадимий анъана ва маросимларимизни тиклаш, эъзозлаш, меҳр қўйиш, миллий қадриятларимизнинг ўзига хос томонларини ёшлар онгига сингдириш йўлида самарали ишларни рўёбга чиқармоқда. 1994 йилда халқимизнинг миллий ҳақрамон эпоси «Алломиш» достони поэтикаси бўйича номзодлик диссертациясини ёқлаган бу тиниб-тинчимас оlima ҳар жабҳада ўз жонқуярлиги, ташаббускорлиғи билан одамлар орасида катта обрў қозонмоқда.

Муҳайё МИРСАИДОВА.

Бектемир туманидаги оилавий шифохонада қўли енгил шифокор аёллар ишлайди.

СУРАТДА: кундузги стационар мудири Дилбор Мухамедова (ўртада) ҳамшира Ироида Шин билан беморларга маслаҳат бермоқда.

Рустам Шарипов олган суратлар.

Миллий мафкура, авваламбор, ўзлгимизни, муқаддас анъаналаримизни англаш туйғуларини, халқимизнинг кўп асрлар давомида шаклланган эзгу орзуларини, жамиятимиз олдига бугун қўйилган олий мақсад ва вазифаларни қамраб олиши шарт.

Ислом КАРИМОВ.

● Давра столи атрофидаги суҳбатни Тошкент шаҳар ҳокимининг ўринбосари Эркин Эрнazarов очиб, мафкуранинг халқимиз, жамиятимиз ҳаётидаги ўрни қанчалар буюклигини таъкидлади.

— Президентимиз Ислом Каримовнинг «Тафаккур» журнали бош муҳаррири саволларига берган жавобларида ҳозирги кунимиздаги энг долзарб масалалар қамраб олинганлигини қайд этди. «Мафкура полигонлари ядро полигонларидан кучлидир», деб айтди йўлбошчимиз, — деди нотик ўз сўзида, — бундан кўриниб турибдики миллий мафкуримизнинг аҳамияти бугун ҳар қачонгидан ҳам бениҳоя каттадир. Мана шунинг учун ҳам йўлбошчимизнинг сўзларидан келиб чиққан ҳолда келгусидаги ишларимизни белгилаш, зудлик билан ҳаётга татбиқ этиш йўлларини аниқлаш учун бу ерга йилгидик.

● Шундан сўнг «Тафаккур» журналининг бош муҳаррири, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг депутаты Эркин Аъзамов сўзга чиқди.

У дастлаб «Тафаккур» журналининг фаолияти ҳақида тўхталиб ўтди, Президентимизнинг маънавият, миллий мафкура, маърифатимиз хусусидаги гамхўрликларини тилга олди.

— Президентимизнинг қайси чиқишларида, маърузаларида бўлмасин маънавият ҳаммаса бош масала бўлиб қолди, — деди Э.Аъзамов, — «Маънавият ва маърифат» республика жамоатчилик марказининг фаолиятини яхшилаш чора-тадбирлари ҳақида икки марта Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари қабул қилинди. Бу, маънавиятимизни юксалтиришга кўрсатилган катта гамхўрликдир.

Президентимиз Ислом Каримовнинг «Тафаккур» журналида босилган жавобларида ҳам биринчи сўзлар маънавиятимизнинг, мафкуримизнинг тўб йўналишини аниқ йўналиб турибди: «Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин». Биз мушаккиллакка эришганимизга етти йил бўлган бўлса ҳам, «мафкура» деган сўзни баралла айтмай қўйгандик. Бу чўчиганимиздан, сабаби коммунистлик мафкурадан юрак олдириб қолгандик. Суҳбатда Президентимиз миллий мафкуримизнинг асосларини белгилаб берди. Мафкура — бу жамиятнинг дунёқараши, жамиятнинг фикрий ҳолатидир, десак тўри бўлади. Дунёқараши эса шаклланади. Шу сабабли ҳам миллий мафкуримизни шакллантиришга ҳисса қўшиш, фидойи бўлиш ҳаммамизнинг ишимиз, юргатимиздаги беором туйғуларимиз бўлмоғи керак.

Мафкуранинг, маънавиятнинг роли ҳақида сўзлар экан, Э.Аъзамов, у ҳар бир жамият аъзоси учун нон ва сувдек зарурлигини қайд этиб, йўлбошчимиз иқтисодиёт ва маънавиятни бир-бирига солиштириб бўлмаслиги, маънавиятсиз иқтисодиёт, иқтисодиётсиз маънавиятнинг ривожланмаслиги, маънавият ва иқтисодиёт тараққиётнинг икки қаноти эканлиги ҳақидаги доно сўзларини келтирди. Ҳозир фикрлар замонни, фикрсиз ҳеч нарсага эришиб бўлмайди. Шунинг учун ҳам мафкура, гоани яратиб жуда муҳимлигини уқтириб ўтди.

● Тошкент шаҳар ҳокимининг ўринбосари Ҳамидулла Кароматов ўз сўзида гоаяларнинг аҳамияти ҳақида сўзлади.

— Токи гоаялар, фикрлар халққа етиб бормас экан, унинг аҳамияти бўлмайди, — деди у, — демек биз миллий мафкура, маънавият ҳақидаги Президентимиз айтган доно фикрларни барчага етказиш учун бор имкониятимизни ишга солишимиз керак. Олий ўқув юрларида, маҳаллаларда, ташкилотларда «Тафаккур» журналида чоп этилган суҳбатни таҳлил этишимиз, уни ёшлар онгига сингдиришимиз, айтиш чоқда ўзимиз учун зарур хулосалар чиқариб олишимиз керак. Миллий мафкура ҳақида Президентимиз айтган ҳар бир сўзда халқимизнинг асрлардан бери юргатида яшаб кел-

лаётган эзгу орзулари ўз аксини топган.

● Тарих фанлари доктори, профессор Дилором Алимова ўз сўзида тарихимизни ўрганиш хусусида фикр юритди.

— Ўзим тарихчи бўлганим учун бир сўзни мамнуният билан қайд этаман: Президентимиз тарихга катта эътибор бераётгандир. Чунки тарих ва мафкура чамбарчас боғлангандир.

Ҳозир шу ерда ўтириб анча олдин, собиқ шўролар даврида бўлган бир гапни

лашимиз керак.

Чиндан ҳам мафкураси кучли халқнинг гурури кучли бўлади. Бундай халқнинг ёшу қариси ваҳҳобийларни, бошқаларни, турли ёт унсурларнинг тарғиботига асло лаққа тушиб қолмайди. Оила, маҳаллада қанчалар тўғри тарбия йўлга қўйилар экан, суҳбатда бизга уқтирилганидек: «Мафкура — ўтмиш ва келажак ўртасидаги кўприк» бўлиб мустаҳкам тураве-ради.

● Республика «Камолот» ёшлар жамғармасининг раиси Хотам Абдураимов ўз сўзида қонун устуворлиги хусусида атрофлича тўхталиб.

— Бундан 400 йил олдин мутафаккир Рене Декарт айтган экан: «Тафаккур, ақл, заковатнинг ўзи кифоя эмас. Ундан оқилона фойдаланиш катта аҳамиятга эга». Шу сабабли мен Конституцияимиздаги бандлар ҳақида бир-икки оғиз сўз айтмоқчиман. Комусимизда «Аёл ва эркак тенгдир» деган банд бор. Ёки виждон эркинлиги, дин эркинлиги ҳақидаги сўзларни

Миллий мафкура ва тафаккур

МАЪРИФАТ ИСТАР КЎНГИЛ

Тошкент шаҳар ҳокимлигида давра суҳбати

Тошкент шаҳар ҳокимлиги «Маънавият ва маърифат» республика жамоатчилик маркази шаҳар бўлими билан биргаликда «Миллий мафкурани шакллантириш ва ривожлантириш тўғрисидаги давра суҳбати ўтказди. Унда шаҳар туманларининг ҳоким ўринбосарлари, «Маҳалла», «Камолот» жамғармалари шаҳар бўлими фаоллари, олий ўқув юрларининг ўқитувчилари, шаҳар Ички ишлар бош бошқармаси ҳокимлари, маҳалла оқсоқоллари иштирок этдилар.

эсладим. Қўлимга «Ўзбекистон» номли шеър тушиб қолди. Шеърда юртимизнинг маънавий сурати шунчалар дард билан чизилган эдики, ҳатто уни ишхонамга олиб келиб ҳамкасбларимга кўрсатдим. Шеър қўлма-қўл бўлиб ўқилди. Бир ҳафта ўтгандан кейин менинг бошимга таъна тошлари ёғилди: «Нега Ўзбекистонни мақтайди шоир? У СССРни қўйлаш керак. Чунки ватанимиз шу буюк иттифоқ». Менимча ўшанда шеър муаллифи Мухаммад Юсуфга ҳам осон бўлмагандир. Шунақа пайтлар эди. Бугун эса миллий мафкуримиз тўғрисида баралла гапиряпмиз. Бу яхши кунларнинг шарофатидан.

Тарих — улкан бир уммон. Унинг бағри сир-синаотга тўла. Мен ҳозир жадидлар даври бўйича иш олиб бораёпман. Жадидлар Ўзбекистонда XIX аср охири XX аср бошларида вужудга келган ҳаракатдир. Улар ҳам Туркистоннинг миллий озодлиги учун курашгандир. Уларнинг ҳам ўз миллий мафкураси бўлган. Бехудудай, Фитрат, Чўлпон сингариларнинг қисмати бугун бизга аён. Президентимиз «Тафаккур» журналида чоп этилган суҳбатларида Абдулла Авлонийнинг тарбия ҳақидаги сўзларини келтиргандир: «Тарбия биз учун ё ҳаёт — ё мамот, ё наҳот — ё ҳалокат, ё саодат — ё фалокат масаласидир». Ёшларга тўғри тарбия бермасдан туриб, уларга тил ўргатмасдан туриб, байналмилал инсонлар қилиб етиштирмасдан туриб буюк мақсадларимизга эришишимиз қийин бўлади.

Д.Алимова бу борада оиланинг роли бениҳоя катта бўлишини мисоллар билан исботлаб: «Мафкуримизни оиладан болалар онгига сингдиришимиз керак. Оиладаги тўғри тарбиясиз жамиятга ўтиб бўлмайди. Келгуси авлодимиз руҳан баркамол бўлиб камол топиши низоҳатда муҳим», деди.

● «Маҳалла» хайрия жамғармаси Ҳамзат тумани бўлими раиси Неймат Ҳасанов ўз сўзида аввал сўзга чиққан нотикнинг фикрларини қўллаб-қувватлаб:

— Мафкура халқни миллатга айлантиради, — деди у, — мафкура — бу маънавият. Маънавият хазинаси эса маҳаллада. Ўзингиз тасаввур қилиб кўринг: эрталаб бир гуруҳ отахонлар покиза бир кўринишда, юртимиздаги тинчликка шукроналар айтиб масжидларга борадилар. Келинчақлар, қизлар, опа-сингилларимиз кўчаларни, ҳақрагаларни супуриб-сидириб, орасталаб қўядилар. Болажонлар кўринганларга салом бериб, мактабга йўл оладилар. Бу маҳалланинг кундалик ҳаёти. Демак биз ҳам миллий мафкуримизни эл дилига жо этишни маҳалладан бош-

олинг. Улар мафкура эмасми?

Президентимизнинг «Тафаккур» журналида босилган жавоблари бизга дустуриламалдир. Уларда халқимиз орасида бор бўлган барча фикрлар ўз ифодасини топган.

Шахсининг тарбияси низоҳатда муҳим аҳамиятга эга. Биз шахсни тарбияламай туриб, халқни, жамиятни қудратли мафкуравий кучга айлантиролмайдим.

● Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси раисининг ёшлар билан ишлаш масалалари бўйича ўринбосари, таниқли шоир Мухаммад Юсуф ёшларнинг тарбияси низоҳатда катта меҳнат, чидам, сабр-бардош талаб этишини таъкидлади.

— Маънавиятнинг, мафкуранинг асосий қисми ёшларга қаратилган, — деди у. — Ёшларга ибрат керак. Чамаси ёшлар тарбиясидаги ишларимиз бирёқламага ўхшайди. Қачонки ижодий учрашуларга борсак талабалар билан дейдор-лашамиз. Шундай экан барча жамоат ташкилотлари ёшлар билан мустаҳкам алоқа ўрнатиларди, ёшлар ичида бўлишлари керак. Ёшларга ибрат керак. Айтишим мумкин: ёзувчиларнинг иши фақат ёзиш эмас. Ёзувчининг юксак фуқаролик бурчи ҳам бор. Бу ҳислат айтиш шундай кунларда, миллий мафкуримиз яралаётган кунларда яққол намоён бўлиши зарур.

● «Маънавият ва маърифат» республика жамоатчилик маркази Тошкент шаҳар бўлими раиси, профессор Садир Салимов ҳозирги миллий мафкуримиз илдиэлари қадим маънавиятларимиз, қадриятларимизга бориб тақалиши хусусида гапирди.

— Ақойиб мутафаккирлар, юксак ақл эгалари қолдириб кетган кутлуг мерос, қадриятлар миллий мафкуримизнинг асосидир, — деди у, — халқнинг ҳар бир авлоди миллий мафкурага ўз ҳиссасини қўшади.

— Инсон, — деб давом этди нотик, — дастлаб ўзи учун яшайди. — Ваҳоланки, ҳар бир киши дастлаб жамият учун яшасагина, жамият, одамлар бахтли бўлсагина ўз ҳаловатини топа олади. Халқнинг яхши яшаш одамнинг яхши яшашидир. Мана шунинг учун ҳам мафкура биз учун буюк руҳий неъматга айланиши керак. Гоавий боқимандаликнинг оқибатларини, азобларини бошимиздан кечирдик. Миллий мафкуримиз мана шу оқибатларга, азобларга чек қўяди. Яна бир масала — бу мақсад. Шахсининг мақсадлари, давлат, жамият мақсадлари билан муштарак бўлиши керак.

«Би-Би-Си» ёки «Америка овози» радиостанцияларидан биронта эшиттириш

бўлиб қолса, «Фалончи ундоқ деди, бундоқ деди» деб иккиланиб қолувчилар жуда кўп. Нега энди шундай бўлиши керак? Мафкуранинг қудрати, маънавиятнинг қудрати мана шунда билинади.

Ҳозир шахримизда маҳалла оқсоқолларини аттестациядан ўтказиш давом этмоқда. Дилимизда оғриқ билан айтаман, оқсоқолларнинг 90 фоизи «Маънавият нима», «Мафкура нима», «Маърифат нима» деган саволларга жавоб беролмаяпти. Оқсоқол фақат тўйларда, маъракаларда бош-қош бўладиган бошлиқ эмас, оқсоқол бугун маҳалланинг маънавий отаси бўлиши керак.

«Миллий мафкурани шакллантириш ва ривожлантириш тўғрисида»ги давра суҳбати охирида суҳбат қатнашчилари Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг «Тафаккур» журнали 2-сонига эълон қилинган суҳбатига баён этилган қонда ва хулосалар асосида тавсиялар ишлаб чиқди. Мавзу низоҳатда муҳим бўлгани учун ўшбу тавсияларни биз ҳам қўйида келтиришни лозим топдик.

— Ҳозирги кунда миллий мафкурани шакллантириш, ривожлантириш, одамларни ўз мустақил фикрига, собит этиқоидига эга бўлишини таъминлаш, уларда миллий мафкура мазмун-моҳиятига мос дунёқарашни шакллантириб бориш, мустаҳкам иродали қилиб тарбиялаш энг муҳим вазифа ҳисобланади.

— Республика Президенти таъкидлагандек: «Гоая қарши фақат гоая, фикрга қарши фақат фикр, жаҳолатга қарши фақат маърифат билан баҳсга кирилиш» мафкурани тушунириш амалиётининг иш услуби бўлиб қолмоғи зарур.

— Миллий мафкуранинг асосий мақсади халқни, миллатни бирлаштирувчи, йўлга бошловчи ягона байроқдир. Бу байроқ бутун Ўзбекистон халқининг руҳини, гурур-ифтихорини, қудратини, орзу-интилишларини муҳасаммалаштирадиган улук кучдир. Ана шу байроқ остида халқни бирлаштириш, халқни-халқ, миллатни-миллат қилиб, қўлимизда энгилмас бир кучга айлантириш учун тарғибот ва тарбия ишлари тубдан янгиланиши; муттасил тақомиллаштириш борилиши зарур.

— Одамларда миллий мафкурани шакллантириш мамлакатнинг бугунги ҳаёти, ўтмиши, келажиги, бутун тақдири учун қайғурадиган, Ватан қисматини ўз қисмати деб биладиган фидойиларни улуғлаш, жамиятимиз мафкураси шу жамиятнинг таянчи бўлиши оддий инсон ва унинг манфаатларини ифода этиши халқимизнинг беҳатар, тинч-омон, фаровон, бадавлат турмушга эришиши учун куч-ғайрат манбаи бўлишини ҳамда фалсафий қарашларини тарғиб этишга алоҳида эътибор қаратилиши лозим.

— Миллий гоани тарғиб этаётганда биринчи навбатда ёш авлодимизни ватанпарварлик, эл-юрта садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг қалбига инсонпарварлик ва одамийлик фазилатларини пайванд қилишга алоҳида эътибор қаратиш лозим.

— Тошкент шаҳри туманлари ҳокимликларида, жамоат ташкилотларида, олий ва махсус ўрта билим юрларида, халқ таълими муассасаларида, маҳаллаларида миллий мафкура гоаяларини кенг оммага тушунириш ишлари собитқадамлик билан мунтазам давом эттирилиши керак.

— Тарғибот ишларида миллий мафкурага зид гоаялар, турли экстремистик оқимларнинг асл мақсади фовш этилиши, бу ишларга оммавий ахборот воситаларини кенг жалб этиш мақсадга мувофиқдир.

— Президентимизнинг миллий мафкура ва таълим ислоҳоти оид кўрсатмалари шаҳар ва туман «Тасвирий ойина» масканларида, шiorларда ўз ифодасини топиши лозим.

— Президентимизнинг миллий мафкура ва таълим ислоҳоти оид гоаяларига бағишлаб ҳар бир туманда илмий-амалий конференциялар, давра суҳбатлари ўтказилиши мақсадга мувофиқдир.

Кўриниб турибдики, миллий мафкура, маънавият ва маърифат ҳозирги кунимизнинг энг долзарб масаласига айланиб бормоқда. Зеро мафкураси бутун, маънавияти юксак, маърифатли, оқ-қорани таниган шахсини тарбиялаш — замон талабидир. Бу муҳим юмушда биронтамаз четда томошабин бўлиб туришимиз мумкин эмас. Шаҳар ҳокимлигидаги давра суҳбати бунга яна бир қарра тасдиқлади.

Темур УБАЙДУЛЛО.

Ўзбек адаблари — «Оқшом» учун



Таниқли ёзувчи, ўнлаб илмий-фантастик ҳикоялар, киссалар, пьесалар ва романлар муаллифи Ҳожиакбар Шайхоннинг «Жодугарнинг эри» номли янги мистик-фантастик киссасидаги воқеалар асосан яқин ҳорижда кечади. Унда шўролар давридаги каттагонлар, фирка амалдорларининг оддий халқ устидан юритган истибдоди, зулми ва жафолари ўз инъикосини топди. Ўша даврдаги тоталитар тузумнинг асл инсоний моҳияти фантастика, мистика усулларида мохирона фойдаланган ҳолда очиб берилган. Адибимиз ўшбу киссадан олинган бир парчани оқшомхонларга тақдим этади.

...Ҳайдовчим Шукрулло унга йўлда учраган чол — Роберт Назаровичнинг ҳикоясини айтиб берар, мен эса нафасимни ичимга ютиб, миқ этмай тинглардим...

Унинг энг оддий жодугарлик хислатларидан бири менинг рўмолчам ёрдамида уйда йўқолган нарсаларни излаб топиш эди. Мен болалигимдан бедаво парижонхотирлик касалига мубтало эдим ва ҳаммавақт майда-чуйда нарсаларини йўқотиб юрардим. Энди эса, менинг авторучкам, ҳамёним, тароқ, қалам ва ҳоказо лаш-лушларим кўз очиб юмгунча топила; бунинг учун хотиним даструмолимни чап тўпигига боғлаганча, ўзимни қўлтигимдан олиб, атрофга кулоқ солаётгандай бир зум тек қотар, сўнгга кутилмаганда унинг ҳафтабало сугуриги ёки латта тегмаган ифлос бурчиға ўзини отиб, тантанавор қиёфада йўқолган нарсамни топиб берарди.

Булар бари майда-чуйда ишлар эди, албатта. Янада ғаройиброқлари хали олдинда экан.

Бир кун ошхонада тимирскиланиб юрган Айра қўлполик қилиб, столдаги суюкли буювсидан эсдалик бўлиб қолган чиройли хитой косачасини паства тушириб юборди, лекин у жон ҳолатда нигоҳини қадашиб билан косача ҳавода бир зум муаллиқ қотдида, сўнгга худди сувға қўйаётгандай ваэин чайқалганча, охиста ерга «қўнди».

— Биласанми, — дея изох берди хотиним бу галати ҳодисага, — мен косача синмаслигини шунақанги хоҳладимки, бутун вужудим ана шу истакка айлангандай бўлди...

Бу пайтда галла ўрими мавсуми бошланган бўлиб, мени бир гуруҳ ҳайдовчиларга раҳбар сифатида шаҳар яқинидаги жамоа ҳўжалигига жўнатишди. Ҳўжалик раиси мени ёлғиз бир онахоннинг кенг ва озода ёғоч уйига жойлаштирди. Кечкурун чой ичиб суҳбатлашиб ўтирарканмиз, аёл: «Ҳаммаси жойида-ку, кимдир қора молимни иссиқ-суюқ қилганга ўхшайди, сизгирим ҳеч нарса емай, жуда озиб кетди, сут бермай қўйди», — дея зорлана кетди. Мен унга раҳмидлик кўрсатиб бош иргар эканман, бирдан кўз олдида хотиним намоён бўлди-да, алланималар дея имлаётгандай туюлди. Кейин онахонга ўз-ўзимдан:

— Эҳтимол, сизга хотинимнинг ёрдами тегар, у баъзи бир афсунлар ва гиёҳларни билади, — дея сўз қотарканман, гапларимнинг маънисини ўзим ҳам англаб етмагандай эдим. Уй бекаси хурсанд бўлиб кетди ва раиснинг олдиға бориб, келгуси яқшанда шаҳарга тушиб чиқишим учун мошина ундириб келди.

Душанба куни кечкурун эса, хотиним сочларини оқ дурра билан тангиганча, кишлоқ йўли бўйлаб мен билан ёнма-ён бораркан, йўл ёқасини диққат билан кузатарди. «Сен ҳаммасига қарайверишинг мумкин, лекин асло гапирма кўрма!» — дея оғохлангирди у мени. Айра бот-бот тўхтаб, ой нурида ғира-шира жилоланаётган қандайдир ўт-ўлан пояларини узиб олар эди. Шу тарика кўп ўтмай, унинг қўлида турфатуман ўт-ўландан иборат гулдаста пайдо бўлди ва хотиним пировардида уйга қайтгач, уни сугуриги ёки бўёқ чўткасига ўхшаб боғлади. Сўнгга тоғораға қудуқ сувидан солиб, унинг устиға энгашид-да, паст овозда алланималар деб пичирлай бошлади, овози шу даражада паст эдики, мен қанча қизикмай, барибир эшитолмадим. Бир маҳал у қаддини ростлади, менга тоғорани олиб, орқасидан юришимни имо қилди-да, ёғоч уй ичкарисидаги катта хонаға йўл олди. Бу ерда шипга осилган катта қаҳрабо чироқ унинг бурчак-бурчакларига нурасон қилиб турарди. Хотиним қўлидаги «сугуриги» тосдаги сувға ботирида, сўнгга уни бир силкитиб, афсун ўқилган сувни унинг чоп бурчиға қараб сачратди. Шу заҳоти қулоқни қоматга келтирувчи чийиллаган овоз эшитилди, бамисоли ўнлаб сичқонлар девор бўйлаб юқорига ўрлаб кетгандай тапир-тупирдан сесканиб тушди.

Мен энди хотинимға даҳшат ичра тикилардим: у лабларини маҳкам қимтиганча, гиёҳлар боғламани тоғорадаги сувға ботириб олиб, тўрт томонға силкитар ва ҳар сафар шовқин-сурон қўтарилар, галати тапир-тупир овозлар энди ҳаммаёқни тўтиб кетганди. Мен кўзга кўринмас мавжудотларнинг эгри-бугри йўналишда пастдан юқорига — шипға ва у орқали томға юғраётганларини пайқадим. Тахминан, яна бир дақиқадан сўнг бутун тарақ-туруқ тепамизға, бутунлай томға қўчиб ўтди. Биз ҳовлиға отландик. Энди, афтидан, томда доира ясаб айланаётган сичқонларнинг тапир-тупир овозлари азбаройи кучайиб кетганидан ёғоч уй томи қисирлаб силканар ва ўнлаб, юзлаб сичқонлар тўтун чиқадиган қувур орқали қоронғи осмон қўниға интилишаётгандай эди. Шовқин-сурон тобора кучайиб, кўп ўтмай авж пардада чийиллаганча, осмон қаъриға отилди...

Ўзингиз ҳам сезган бўлсангиз керак, шундан сўнг қишлоқлик онахоннинг муаммолари ҳам ўз-ўзидан ҳал бўлди; эртасигаёқ сизгирининг «иштаҳаси» очилиб, озуқа ейишға тушди, сўнгга сут ҳам бера бошлади. Қишлоқ ҳўжалиги ишларини тугатиб, уйға қайтиш фурсати етиб келганда, аёл каминани ўтқизгани жой тополмай, бир қоп картошка билан сийлади, истаган куним азиз меҳмон бўлиб келаверишим мумкинлигини айтди.

(Давоми 4-бетда).



Ёз асли дам олиш палласи бўлса-да, болалар учун у айти ҳаракатчанлик, ўйинқароқлик дамларидир. Шунинг учун ҳам улар бу кунларни интиқлик билан кутадилар, ҳатто ёзининг ҳазирама кунлари ҳам уларни безовта қилолмайди. Сирасини айтганда фақат ана шу дамлар болалар хотираларига муҳрланади.

Равиль Альбеков олган сурат-лавҳалар.

ЖОДУГАРНИНГ ЭРМ

(Фантастик қиссадан парча)

(Давоми. Боши 3-бетда).

— Аслида нима воқеа бўлган экан ўзи, Роберт Назарович? — сўрадим мен сабрим чидмай унинг гапини бўлиб.

— Бу воқеа менга ҳозир ҳам худди ўша вақтдагидай буткул қоронғу. Айра бу ҳусусда лом-мим демас, савол бериш бизда ноҳиоз иш саналарди. Качондир у менга: «Тилга кўчган билим кучини йўқотди», — деганди. Ана шу, ҳоло...

— Бунинг қандайдир изоҳи бўлиши керак-ку, ахир? — сўрадим мен яна ўжарлик билан.

— Кейинчалик илми сەҳр ёки афсунгарлик билан боғлиқ адабиётларни мутлоаа қилиб шуни аниқладимки, жодугарлар уч тоифада бўларкан: оқ, қора ва қулранг. Биринчи тоифадагиларнинг қўлидан фақат эзгу ишлар келаркан, иккинчилари — ёвузлик ва учинчилари — униси билан ҳам, буниси билан ҳам шуғулланаверишаркан. Жодугарлик, афсун масаласида ўрта асрларнинг энг билимдон иблишунослиги сўнги тоифадаги жодугарлар кенг тарқалганлигини эътироф этади. Хусусан, ҳосилсизлик, турли касалликлар пайдо бўлиши, қурғоқчилик, фолбинлик, инсонга қарши иссиқ-совуқ қилишларни одатда уларга тўнкашган. Жодугарлар ёвуз гайб кучлари ёрдамида иш юритишди ва улар билан хуфия мулоқотда бўлишди, деб тахмин қилишган. Уларнинг таъкиб-таъйиқда бўлишаркан, жодугарлар айна вақтда ўша ёвуз кучларга ҳам таъсир кўрсата олишган, улардаги гайритабиий қобилиятлар мана шу билан изоҳланади. Буюмлар, ҳайвон ва ўсимликларнинг сирли ҳусусиятларини билиш ва улардан моҳирона фойдаланиш ҳам жодугарларга хос ҳислатдир...

Роберт Назарович машина чироқлари ёнаётган асфальт йўлга ўйчан тикиларкан, яна сукутга ботди. Мен эса, воқеаларнинг энг қизиғи энди бошланишини ботинан туйраканман, миямда саволлар гулгон ўйнардди.

— Кечирасиз, Роберт Назарович, — дедим мен сукутти бузиб, — тушунимсиз, хотинингиз жодугарларнинг эзгу тоифасидан шеклини?

— Йўқ, дастлаб мен ҳам шундай деб ўйлаб, янглишган эканман. Пировардида унинг қулранг жодугарлар тоифасига мансублигини англадим. Чунки у одамларга яхшилиқни ҳам, ёмонлиқни ҳам бирдай раво кўраверарди. Лекин... лекин қулранинг бирида биз турадиган унинг (биз шахар марказидаги номенклатура учун қурилган ҳашаматли кўп қаватли уйнинг учинчи қаватда яшардик) шундоқ биқинидаги кўчадан намоийшчилар ўтиб қолишди-ю, шу кундан бошлаб хотинимнинг хулқ-атвори кескин ўзгара бошлади.

Намоийшчилар пастда комфиркага қарши турли шпорлар ёзилган матоларни кўтарганча, бақир-чақир қилиб ўтишаётганди. Беговта оломон ичидан: «Горбачев йўқолсин!», «СССРни парчалаган комфиркага минг лаънат!», «Номенклатурадаги махкамачи тўралар иши судга оширилсин!» — деган бўғиқ ҳайқириклар янгради.

Кутургудек ғазабга кирган Айра хонада асабийлик билан уёқдан-бу ёққа одимларкан:

— Лаънати демократлар! Кўрасизлар ҳали, ҳолин-гизга маймунлар йиғламаса, отини бошқа қўяман, бошингизга ит кунини соламан! — дерди тишлари орасидан илондай вишиллаб. Кейин куракда турмайдиган сўзлар билан болохонадор қилиб сўқинди. Шу топда у чинданам ўзини ўлжасига отмоқчи бўлаётган кўзойнакли илонга ўхшаб кетганди.

Шундай деди-да, у бирдан жадал ичкарига отланди, лаҳза ўтмай, бир челақ сув ва турли гиёҳлардан иборат «супургисини» кўтариб чиқди. Сўнгра қаҳр-ғазаб ўтида ёнаркан, челақдаги сув устига энгашди-да, алланималар дея пичирлаб, афсун ўқишга киришди. Кейин «супургисини» челақдаги сувга ботириб, дераза орқали пастга, намоийшчилар устига силкитишга тушди. Бу ишни бир неча бор такрорлаганча, ажабо, оломон худди аридек тўзиб кета бошлади. Бақир-чақир овозлари янада кучайиб, баъзи бировлар чеккада саф бўлиб турган мишрабларга дағдага билан ўзларини отишди. Лаҳза ўтмай шунақанги тўс-тўпалон бўлдики, оломон ва мишраблар жик-қа-мушт бўлиб, ўнлаб одамлар оёқ остида қолиб кетишди. Намоийшчилар тўдаси тўфон кўтарилган уммондай жавлон уриб тўлқинланар, ер-кўни остин-устун қилишга шайлангандек жазавага тушди.

Шайтондай қолган боладай озгидан кўпик чиқиб кетган Айра кўзларини ғазабнок чакнатиб, захархандалик билан қаҳ-қаҳ уриб қуларкан, терлаб-пишганча, «супургисини» челаққа ботириб, оломон устига ўзлуксиз силкитишда давом этарди.

Мен асарият ҳолларда ўзимни тийиб туришга одатланган эмасманми, лекин бу сафар ундай қилолмадим.

— Ўзингни бос, жоним, бас қил! — дея хотинимга ёпишиб, қўлидаги супургисини тортиб олдим-да, пастга улоқтирдим.

Хотиним каминига шунақанги нафрат билан тикилдики, сочларим, баданимдаги туқларимгача тикка бўлиб, бутун вужудимни совуқ бир тўлқин қамраб олгандай бўлди. Айранинг охуниқидай катта-катта кўзларидан бамисоли қаҳрабо учкунлари сачраб, бутун борлиғимни ўраб-чирмар экан, мен худди ҳамма насага лоқайд қарайдиган манкурт одамдай туйқусдан ювош: тортиб қолдим. Айни дамда у меннинг ички куч-қувватимни оч арвоҳ янглиғ сўриб олаётгандай оёқ-қўлларимда чексиз бир чарқоқ ва мадорсизлик туйдим. Шу захоти кўз олдим қоронғилашиб, рўпарамдаги хотиним чирпирак бўлиб айлана бошлади, оёқларим қалишиб, ҳушимдан айрилганим элас-элас ёдимда...

(Давоми бор).

Футбол тарихига мурожаат қиладиган бўлсак, уни энг қадимги спорт турларидан бири эканлигининг гувоҳи бўламиз. Қайси бир футбол ишқибозидан футболнинг ватани қаер деб сўраманг, Англия деб жавоб беришади. Олимлар ҳам бу ўйиннинг қадимдан маълум эканини тахмин қилишар эди, лекин ашёвий далил бўлмагач, бирор аниқ фикр айтишмас эди.

Нихоят олимлар фикрини тасдиқлайдиган тарихий гувоҳ чиқиб қолди. Грецияда 2000 йилдан буён ер остида қолиб кетган гулдон топилиди. Унда икки эркак тасвирланган бўлиб, улардан бири футболчи — машқ пайтида, иккинчиси эса мураббий сифатида унга йўл-йўриқ кўрсатяпти. Агар ўша даврда футбол ўйини бўлмаганда, бундай манзара тасвирланмаган бўларди.

Умуман, футбол ҳақидаги турли мулоҳазалардан қатъий назар шуни айтиш мумкинки, ушбу спорт тури йиллар оша такомиллашиб бориб шу ҳолатга келган. Ҳакамлар, уларнинг ҳуштаги, дарвоза ўлчовлари, устунлари, тур пардалар, бурчакдан тепиш ва жарималар бирин-кетин ўйин қоида-сига киритила бошлаган.

Ўзбекистонда футбол командаси дастлаб 1911 йил Фарғонада, кейинчалик Тошкент ва Андижонда тўзилди. 1937 йилдан футбол бўйича Ўзбекистон кубоги мусобақалари ва Ўзбекистон чемпионати ўтказила бошланди. Бу мусобақаларда Тошкентнинг «Спартак», «Динамо», «Сокол» командалари энг кўп ютуқларга эришган. Тошкентнинг «Пахтакор» командаси, айниқса ўзбек футбол ишқибозларининг алоҳида эътиборига сазовор бўлди.

«Пахтакор» ташкил қилинганда кейин унинг ўйинини етакчи ва истеъдодли ўйинчилар белгилаб келишган. Бора-бора «Пахтакор»нинг устозлари ўз жамоасини маҳаллий ёш ўйинчилар билан мустақамлаб бордилар. Айни пайтда тажрибали



СУРАТЛАРДАГИ ТАҚДИРЛАР

Футбол



ўйинчилар ҳам бор эди. Умуман, тажриба билан ёшлик шижоати уйғунлашса, ажойиб натижа беради. Албатта команданинг муваф-

фақиятсиз қатнашган мавсумлари ҳам бўлди. Команда ўз ўйин услубини топиши, майдонда ҳар қандай рақиб билан имкони борица

курашишга интилиши унинг муҳлисларини ана шу мағлубиятида ҳам ранжитмади.

«Пахтакор» нафақат очко тўплаш йўлидан, балки чиройли ўйин кўрсатиш йўлидан борди. Мутахассислар одатда маълум учрашувнинг натижасига асосланиб жамоа ўйинини баҳолайдилар. Команданинг икки-уч техник ва тактик усули кўп нарсадан дарак беради. Хуллас, «Пахтакор» жамоаси ҳақида шуни айтиш мумкинки, у ўз даврида собиқ иттифокда ҳам катта доврў қозонди.

Ўзбекистон Республикаси кино, расм ва овозли ҳужжатлар Марказий давлат архивида «Пахтакор» командасининг 60-йиллар давомида Москва, Киев, Минскнинг «Динамо», Хитой, Афғонистон, Финляндия, Корея, Япония командалари билан ўтказган ўйинлари тўла бўлмаса-да сақланиб қолган. «Пахтакор» командасининг 1956 йилда ташкил этилганлигини ҳисобга оладиган бўлсак, бу лавҳалар ўзбек муҳлисларининг энг сеvimли командаси — «Пахтакор»нинг дастлабки қадамлари ҳақида ҳикоя қилиши билан ҳам аҳамиятлидир. Бугун эътиборингизга архив фондида сақланаётган «Пахтакор» футбол командасининг тарихидан сўзловчи айрим фотоҳужжатларни намойиш этмоқдамиз.

Умида АКРАМОВА.

Ўзбекистон Республикаси кино, расм ва овозли ҳужжатлар Марказий давлат архиви ҳужжатлардан фойдаланиш бўлими мудири.

СУРАТЛАРДА: «Пахтакор» командаси Тошкент аэропортида Индонезия ва Камбоджага учиб олди — 1962 йил Тошкент шаҳри; «Пахтакор» стадионида Бразилиянинг «Пирасикаба» ва «Пахтакор» командалари ўртасида 1964 йили ўтказилган халқаро ўртоқлик учрашувидан лавҳа. Учрашув «Пахтакор» командасининг галабаси билан якунланган; Ленинграднинг «Динамо» ва Тошкентнинг «Пахтакор» командаларининг учрашуви. Ўйин «Пахтакор» стадионида бўлиб ўтди ва мезбонлар галабаси билан якунланди. 1964 йил, Тошкент шаҳри; «Надежда» кубоги мусобақасининг «Пахтакор» ёшлар командаси голиблари, 1966 йил, Тошкент шаҳри.

Чавандозлик

ЎЗБЕКИСТОН РЕКОРДИ ЎРНАТИЛДИ

Тошкент Отчопа-рида ҳар хил зотларга мансуб учқур отларнинг турли хил масофалар бўйича республика миқёсидаги пойга мусобақаси бўлиб ўтди.

Бу мусобақада республикамиздан кўплаб чавандоз от қатнашди. Ёш отлар (яъни 2-4 ёшли) учун 1200 метр масофа, 4 ёшдан юқори бўлган отларга 2400 метр масофа бўйлаб югуриш белгиланди.

Отларнинг яхши боқилганлиги ва соғломлиги уларнинг юришдан маълум бўлади, — дейди республика от спорти федерациясининг бош мураббийси Жўрақўзи Турдиматов. 1200 метрлик масофани «Бухоро» лақабли от 1 дақиқа 28,8 сонияда, «Вектр» эса 2400 метрлик масофани 2 дақиқа 42,8 сонияда босиб ўтишининг ўзини қуттилган ютуқ десак ҳам бўлади. Албатта бу ютуққа эришишда республика от спорти федерациясининг вице-президенти Расулжон Содиковнинг ҳиссаси каттадир.

Шунингдек, мусобақада юртимизда уста пойгачи номини олган спортчилардан Н. Левадний, Б. Тўраев, С. Хусанов, И. Усмонов ва А. Тольстихлар қатнашишди.

Бугунги кунда Тошкент Отчопа-рида «Комсар», «Темур Малик» ҳамда «Саноат моллари» номли учта хусусий от спорти мактаби фаолият кўрсатмоқда. Шунингдек, шаҳримиздаги кўплаб от спорти ишқибозлари ўзларининг зотли, учқур отлари билан турли хилдаги пойга ва кўпқариларда иштирок этишмоқда. Шуккур Тўлаганов, Аҳмад Маъруфхўжаев, Николлай Череновскога, Рашид Ганиев, Гофир Сидиков, Ботир Турсунов, Гофир Раҳимовлар шулар жумласидандир.

Гулнора ДАМИНОВА

Бош муҳаррир ўринбосари
Солиҳ ЁҚУБОВ

ТИЖОРАТ ХАБАРЛАРИ ВА ЭЪЛОНЛАР

ТАНЛОВГА МАРҲАМАТ!

Тошкент Давлат техника университети қошидаги Олий муҳандислик педагогика (малака ошириш) институти қуйидаги бўш лавозимларга танлов эълон қилади:

1. Компьютерлар технологияси ва коммуникациялари кафедраси бўйича: а) замонавий компьютер технологиялари бўйича мутахассис (I); (профессор ёки доцент); б) компьютерда лойиҳалаш, техникавий амалиёт дастурлар бўйича мутахассис (I); (профессор ёки доцент); в) замонавий алоқа системалари бўйича мутахассис (I); (профессор ёки доцент).
2. Замонавий материаллар, технологиялар ва ускуналар кафедраси бўйича Мудирлик лавозимига: фан доктори, профессор ёки доцент (I).
3. Педагогика ва амалий психология кафедраси бўйича Мудирлик лавозимига: фан доктори, профессор ёки доцент (I), олий таълим педагогикаси ва амалий психология бўйича мутахассис (профессор ёки доцент).

Танлов муддати эълон босилгандан сўнг 1 ой.

Танловда пенсия ёшигача бўлган олим ва олималар қатнашиши мумкин. Ўқув юкламалари олий ўқув юртилардан 25% га кам.

Танловда қатнашиш учун қуйидаги ҳужжатлар топширилади: ариза, меҳнат дафтарчасининг нусхаси, кодрлар шахсий варақаси, таржимаси ҳол, тавсифнома, дипломлар нусхаси, илмий ишлар рўйхати, фотосурат 3х4 — 2та.

Манзилимиз: Талабалар шаҳарчаси, Талабалар кўчаси, 91. 2-қават, 204-хона. Тел.: 46-18-05, 46-87-38.

«ТОШКЕНТ ОҚШОМИ»

Сизнинг рекламаларингизни, хусусий эълонлар ва хусусий бизнес бўйича эълонларни, шунингдек таъзияларни, таваллуд қуналари, тўйлар, юбилейлар муносабати билан қутловларни, никоҳ эълонлари ва шунга ўхшаш эълонларни ўз саҳифаларида ёритади.

Эълонлар шанба ва якшанбадан ташқари ҳар кунни соат 9.00 дан 17.30 гача қабул қилинади. Маълумотлар учун телефон: 133-28-95.

Факс: (3712) 133-29-09. **МАНЗИЛИМИЗ: МАТБУОТЧИЛАР КЎЧАСИ, 32-УЙ, 2-ҚАВАТ, 204-ХОНА.**

• «Москвич-2141» автомашинаси сотилади. Телефон: 54-30-48, уй: 132-09-40, иш.

• 1-Тошкент Давлат тиббиёт институти томонидан 1993 йилда Сахиева Мухаббат Толкуновна номига берилган маълумотнома йўқолганлиги сабабли

БЕКОР ҚИЛИНАДИ

Тошкент кимё-технология институти маъмурияти, фундаментал фанлар факультети, органик кимё кафедраси жамоаси профессора А. Б. Аллоидиновга оналари **Асқархўжа қизи ЗУННУНХОН** аянинг вафот этганлиги муносабати билан чуқур таъзия изҳор этади.

ТОШКЕНТ ОҚШОМИ
Toshkent oqshomi

Муассис:
ТОШКЕНТ ШАҲАР
ҲОКИМЛИГИ

Манзилимиз:
700000, Тошкент шаҳри,
Матбуотчилар кўчаси, 32

Телефонлар:
хатлар — 133-29-70;
эълонлар: 133-28-95,
132-11-39.
факс: (3712) 133-29-09.

*Душанба, горшанба
ва ҳафта
кўнлари чиқади.
Ҳафтасида
209*

Нашри етказиб бериш масалалари бўйича турар жойлардаги почта бўлимларига ёки «Тошкент почтаси»га 133-74-05 телефонига мурожаат қилишнинг мумкин.